

SHE'RIY ASARLAR TAHLILIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Axadova Sevara Toxir qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va dabiyoti fakulteti 2-bosqich magistranti

axadovasevara41@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy tahlil asoslari va o'rta maktab ta'limida ulardan foydalanish usullari haqida so'z yuritiladi. Muhammad Yusufning "Sevgi bu..." va "Biz baxtli bo'lamiz" she'rlari asosida o'quvchilarga turli xil topshiriqlar va interfaol metodlardan foydalanish, dars jarayonining ularni qo'llash samarador ekanligi haqidagi fikr-mulohazalar beriladi.

Kalit so'zlar: badiiy tahlil, venn diagrammasi, badiiy san'at, ifodali o'qish, sinkveyn, she'r tahlili, metafora, antiteza, metod.

ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В АНАЛИЗЕ ПОЭЗИИ

Ахадова Севара Тохир кизи

Самаркандский государственный педагогический институт

Факультет узбекского языка и литературы 2 курс магистратуры

axadovasevara41@gmail.com

Аннотация. В данной статье рассматриваются основы художественного анализа и методы его применения в средней школе. На основе стихотворений Мухаммада Юсуфа «Любовь есть...» и «Мы будем счастливы» учащимся предлагаются различные задания и дается обратная связь об эффективности их использования в учебном процессе.

Ключевые слова: художественный анализ, диаграмма Венна, художественное искусство, экспрессивное чтение, синхронизация, анализ поэзии, метафора, антитеза, метод.

USE OF INTERACTIVE METHODS IN THE ANALYSIS OF POETRY

Akhadova Sevara Tokhir qizi

Samarkand State Pedagogical Institute

Faculty of Uzbek Language and Literature 2nd year master's student

axadovasevara41@gmail.com

Annotation. *This article discusses the basics of artistic analysis and methods of their use in secondary school education. Based on the poems of Muhammad Yusuf "Love is..." and "We will be happy", students are given various tasks and feedback on the effectiveness of their use in the teaching process.*

Keywords: *artistic analysis, Venn diagram, artistic art, expressive reading, syncwine, analysis of poetry, metaphor, antithesis, method.*

KIRISH

Adabiyot darslarini tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanish -o'quvchilar dunyoqarashini belgilashda va dars jarayonini qiziqarli o'tkazishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, so'nggi yillarda maktab darsliklarining tubdan yangilanishi zamon talablariga mos bo'lgan kreativ va interfaol metodlardan foydalanishni talab qilmoqda.

Adabiyot darslarida she'rni o'rganish va tahlil qilish o'quvchilarning nutqini, tafakkurini va madaniyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. She'r g'oyasi va badiiy mazmunini bilish va uni chuqurroq anglash uchun dars jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish zarur. Professor B. To'xliyev ham bu borada fikr yuritib: "Aslida adabiyot o'qitishning bosh yo'nalishi ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilar ongiga badiiy asarning mo'jizakor ta'sir kuchini amaliy jihatdan

ta'minlashga qaratilgan", – deb yozadi. Shu jihatdan interfaol metodlar adabiyot darslarining samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyot darslarini tashkil etish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Xususan, Qozoqboy Yo'ldoshev tadqiqotlarida o'zgargan jamiyatdagi adabiy ta'limni mohiyatan o'zgartirishning ijtimoiy, ilmiy va pedagogik asoslarini ko'rsatib berdi. Boqijon To'xliyev, Safo Matjon va Marg'uba Mirqosimovalar ham adabiyot o'qitish metodikasiga o'z hissasini qo'shganlar. Maktab darsliklaridagi she'riyat tahlilida metodik jihatdan S. Matjonov va Q. Yo'ldoshevning tadqiqotlari muhim o'rin tutadi.

Muhammad Yusufning "Biz baxtli bo'lamiz" va "Sevgi bu..." she'rlari intim lirikaga xos. She'rlarda inson qalbidagi sevgi, umid, sadoqat va baxt orzularini ifodalagan. "Biz baxtli bo'lamiz" she'rida oshiqlik va insonga xos bo'lgan samimiy tuyg'ularning tarannum etilishi. Tuygularni ifodalashda shoir mahorati. Insonlarga xos bo'lgan muhabbat Yaratganning buyuk bir ne'mati ekanligi va lining har kimga ham taqdim etilavermasligi. She'rdagi baxtli bo'lish hissi va bunga bo'lgan ishonch talqini.

Ushbu tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

1. Qiyosiy-taqqoslash metodi. Ikki she'r g'oya, obraz, mavzu va hissiyotlar jihatidan farqlanadi.

2. Izohli o'qish metodi. She'rni ifodali o'qish orqali undagi badiiy tasvir vositalarining izohlanishi.

3. Struktur-semantik tahlil. She'rlardagi badiiy san'atlar (metafora, sifatlash)nva lirik qahramon holatining ma'no qatlmlari o'rganiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Muhammad Yusuf haqida Erkin Vohidov shunday yozgan edi:

"Muhammad Yusufni xalqimiz sevib dilida saqlaydi, Vatan kuychisi, Istiqlol kuychisi deb ardoqlaydi, o'zbek eliga ulug' mehr, sadoqat singib ketgan nazokatli, samimiyat to'la she'rlarini qadrlaydi, qo'shiq qilib aytadi. Uning she'riyatini chin ma'noda qanotli she'riyat, yurt osmonida baland parvoz qiluvchi, yuraklarga qanot berguvchi she'riyat desa bo'ladi." Shoirning quyidagi she'rini ko'rib chiqamiz:

SEVGI BU...

*Sevmoq bu kechirmoq degani asli,
Toki bu dunyoda quyosh bor, gul bor.
Yalpizlar gullagan shu bahor fasli
Sodiq hamdam bo'lgin sen menga, dilbar.
G'iybatlar tingladim, aylandi boshim,
Ho'l tuproq kuydirdi tovonlarimni.
Va mana men unga ko'nglimdan yulqib
Ko'mdim beor do'stdek gumonlarimni.*

Shoir she'rdagi sevgi mohiyatini va sevish bu kechirish ekanligini ta'kidlaydi. Bahor tasviri orqali endi kurtak yozayotgan sevgini tushuntiradi. Oshiq sevgan yori haqidagi yomon xabarlarga ko'z yumadi.

*O'ylar suraverdim kechalar tanho,
Goho jiqqa yoshga to'lganda ko'zim.
Va seni sevmoqdan oldin bir kuni
Dildan sevib qoldim o'zimni o'zim...*

Lirik qahramon ruhiy kechinmalarini yolg'izlikda va ko'z yoshlari bilan o'tkazadi.

*Sevmoq bu o'zingni anglamoq asli,
Toki zamin aro quyosh bor, gul bor.
Rayhonga ko'milgan shu bahor fasli
Sadoqatli yor bo'l sen menga dilbar.
Sevgilim, men seni sevaman, tamom,
G'amgin ko'zing, hadik to'la ko'zingni.
Sevmoq bu kunda bir ko'rmoq baxtidir
Ozg'in qo'llaringni, sepkil yuzingni...*

Bu misralarda sevgi insonning o'zligini anglashi aytiladi. Bahorda g'uj-g'uj bo'lib o'sadigan jannat guli-rayhon tasviri orqali sevgining go'zalligi tasvirlanadi. Oshiq sevgan yorini boricha qabul qiladi va sevgilisining sepkil yuzini ko'rish ham u uchun baxt.

Muhammad Yusufning rafiqalari Nazira opa bir suhbat chog'ida, Muhammad Yusuf oilada umr yo'ldoshi hamda farzandlari Ma'suda, Nozima, Madinalarga nisbatan

juda talabchan bo'libgina qolmay, mehribon ota bo'lganliklarini oila ahli mehr to'la so'zlarida yaqqol o'z aksini, topadi.

Shuningdek, shoirning 8-sinf "Adabiyot" darsligida berilgan "Biz baxtli bo'lamiz" she'ri tahlillarida ham interfaol usullardan foydalanish asar mazmunini o'quvchilarga etkazilishida samarador hisoblanadi. She'ring asosiy mavzusi sevgi, taqdir va sadoqat masalasidir. Shoir sevgan kishisiga nisbatan o'zining chuqur his-tuyg'ularini ifodalaydi. Ularning uchrashuvi ham, baxtli bo'lishi ham xudoning irodasiga bog'liqligini ta'kidlaydi.

She'riy asar tahlili dars jarayonida quyidagilarni shakllantiradi:

yozma va og'zaki nutqni mustahkamlaydi;

tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantiradi;

badiiy vositalarni tushunish va qo'llashni shakllantiradi;

lug'at boyligini o'stiradi;

Muhammad Yusufning yuqoridagi she'rlari asosida o'quvchilarga quyidagi topshiriqlar orqali she'r tahlilini tushuntirish mumkin.

1-topshiriq

"Ifodali o'qish" topshirig'i bo'lib, bunda o'quvchilar she'r matnini yoddan intonatsiya bilan o'qiydilar.

(Ushbu topshiriq o'quvchilarning nutqini, tafakkurini va she'r matnini tushunish qobiliyatini rivojlantiradi.)

2-topshiriq

"Venn diagrammasi" metodidan foydalanib, o'quvchilar ikkala she'rni qiyoslaydi. Bunda shoir she'rlarida nima demoqchi ekanligini diagrammada ifodalaydi. Birinchi she'rda asosiy mavzu va obrazlar, ikkinchi she'rni ham xuddi shu usulda tahlil qilishadi, oxirida ikkala she'rning umumiy xususiyatlari birlashtirishadi.

Sevgi bu...	Umumiy jihatlar	Biz baxtli bo'lamiz
mehr	sevgi	sabr
sadoqat	sadoqat	ishonch
baxt	baxt	umid qilish
yorni tushunish		yorning kutishi

(Ushbu topshiriq o'quvchilarning tahlil qilish, taqqoslash qobiliyatini va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Qolaversa, dars jarayonini qiziqarli o'tkazishga yordam beradi.)

3-topshiriq

“Badiiy san’atni top” mashqi bo‘lib, bunda o‘quvchilar she’rdagi badiiy tasvir vositalarini aniqlaydilar. Har bir misrani sinchiklab o‘qishadi va tahlil qilishadi. Masalan, she’rni ifodali o‘qib bo‘lgach, quyidagi topshiriqni bajaramiz.

“Sevgi bu...”

Metafora: *Ko‘mdim beor do‘stdek gumonlarimni.* O‘zini “orsiz do‘stga” o‘xshatyapti.

Takror: *Toki bu dunyoda quyosh bor, gul bor.* Birinchi va to‘rtinchi bandda takrorlangan.

Epitet: *Ozg‘in qo‘llaringni sepkil yuzingni.* “Ozg‘in qo‘llar”, “sepkil yuz”

Antiteza: *Qo‘llanilmagan.*

“Biz baxtli bo‘lamiz”

Metafora: *Nur tomsin lablaring sohillaridan.* Labdan “nur tomishi”

Takror: *Biz baxtli bo‘lamiz, Xudo xohlasa.* She’rning boshlanishida ham, oxirida ham qo‘llanilgan.

Epitet: *Aybing – onang seni chiroyli tug‘gan.* “Chiroyli” sifati orqali yorni ta’riflash.

Antiteza: *Mayli-da, kimgadir yoqsa, yoqmasa.* “Yoqsa, yoqmasa” so‘zlarining zid qo‘llanilganligi.

(Ushbu topshiriq o‘quvchilarda badiiy tasvir vositalarini chuqurroq anglashga va she’rni tahlil qilishga yordam beradi)

4-topshiriq

“Sinkveyn” metodi. Ushbu topshiriqda o‘quvchilar “sevgi” so‘zi asosida sinkveyn (besh qatorli she’r) tuzadilar. Birinchi qatordagi so‘z o‘tilgan mavzu y’ani she’r yuzasidan qilinsa ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1-qator –Sevgi

2-qator – birinchi qatordagi otni yoki olmoshni xarakterlaydigan ikkita sifat;

3-qator – birinchi qatordagi otni xarakterlaydigan uchta fe’l yoki ravishdosh;

4-qator – mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi, to'rt so'zdan iborat birikma yoki gap;

5-qator – mavzuni xulosalaydigan bitta so'z;

(Ushbu topshiriq o'quvchilarning fikrini o'stirishga, diqqatini jamlashga, tez javob berishiga yordam beradi.)

Xulosa. She'riy asarlarni tahlil qilish metodikasi adabiyot darslarida interfaol metodlar yordamida she'rlarni o'rganish nafaqat adabiy bilimlarni mustahkamlaydi, qolaversa, o'quvchilarning darsda faol ishtirokini, mustaqil fikrlashini, ijodiy faoliyatini, nutq madaniyatini, taqqoslash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova. Adabiyot o'qitish metodikasi I kitob. Innovatsiya-Ziyo. Toshkent. 2022. 160-b
2. Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova. Adabiyot o'qitish metodikasi II kitob. Innovatsiya-Ziyo. Toshkent. 2022. 47-b
3. 6-sinf adabiyot darslik. Respublika ta'lim markazi. Toshkent. 2022. 211-b
4. 8-sinf adabiyot darslik. Respublika ta'lim markazi. Toshkent. 2025. 222-228-b
5. O'zbekiston Xalq shoiri Muhammad Yusuf – Vatan va muhabbat kuychisi. Ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent. 2021. 218-b
6. O'zbekiston Xalq shoiri Muhammad Yusuf – Vatan va muhabbat kuychisi. Ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent. 2021. 36-b